

AMIR TEMUR DAVRIDA IQTISODIY QARASHLAR

Jasur bek Abdullayev

Ilmiy rahbar: QarMII iqtisodiyot yo'nalishi tyutori

Maxmudov Suxrob

QarMII "Iqtisodiyot" yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola XIV va XV asrlarda hukmronlik qilgan buyuk Sohibqiron Amir Temur davridagi iqtisodiy qarashlarga bag'ishlanadi. Amir Temur davridagi iqtisodiyot va uning rivojlanish sabablari ushbu maqolada aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Movorounnahr, iqtisodiyot, savdo-sotiq, soliqlar, Devon, loy jangi, Sayyid Baraka, Amir Husayn*

KIRISH

Ma'lumki III Sohibqiron davrida Movorounnahr jahon savdosi o'chog'iga aylandi. Mo'g'ullar qo'lidan ozod qila olgan yurtni juda tez sur'atda yuksaltirish uchun Sohibqiron turli xil yo'nalishlarda rivojlantirishga harakat qildi. Turli xil saroylar va masjidlar qurish, dehqonchilikni rivojlantirish, tashqi va ichki savdo aloqalarini bir maromda yo'lga qo'yish uchun albatta Amir Temur o'z shaxsiy iqtisodiy qarashlariga ega bo'lishi va buni amalda ko'rsatib bera olishi kerak edi.

Umuman olganda, O'rta Osiyo xalqlari uzoq muddat mo'g'ullar mustamlakasi ostida yashadi. Lekin siyosiy maydonga Amir Temurning qadam qo'yishi bu xalqlar taqdirini tom ma'noda o'zgartirib yubordi. 1365-yil 22-maydagi loy jangidan so'ng Ilyosxo'ja boshliq mo'g'ul lashkari Amir Temur va Amir Husayn qo'shinini kutilmaganda yengadi va Samarqand tomon yo'l oladi. Biroq Samarqand ostonasida kutilmaganda Sarbadorlar qarshiligiga uchragan mo'g'ul lashkariga bu g'alaba samara bermaydi. Shundan so'ng Movorounnahrni tark etgan Ilyosxo'ja va uning qo'shinining zulmi tugaydi va Amir Temur va Amir Husayn nizosi boshlanadi. 1370-yilda Balx tomon yurish boshlagan Amir Temur yoniga o'z davrining eng buyuk ulamolaridan biri Sayyid Baraka keladi va unga hukmronlik ramzi bo'lgan bayroq va nog'ora taqdim etadi. Bu voqea Amir Temurning hayotida o'zgacha o'rin tutadi, chunki shu voqea sabab Amir Temur Amir Husaynni qiyinchiliksiz yengadi va bu voqea sababli uning yoniga ko'pgina amirlar kelib qo'shiladi. 1370-yilda Amir Temur taxtga o'tirgach O'rta Osiyo va umuman butun dunyo xalqlari uchun yangi davr boshlandi.

Iqtisodiy jihatdan tarqoq davlatni Amir Temur o'ta tez sur'atlarda ham iqtisodiy ham madaniy jihatdan rivojlantira olgan. Xatto 3 yillik, 5 yillik va 7 yillik urush safarlarida davlatda iqtisodiy o'sish va madaniy rivojlanish bo'lgan. Umuman olganda, Sohibqiron iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos va o'z davri uchun mukammal yo'l tutgan. Davlatning har bir viloyatida Devon deb ataluvchi boshqarma bo'lib, u davlatning muhim ishlarini ya'ni soliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar – bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlarining tarmoqlarini nazorat qilib turgan.

Uning xodimlari tomonidan tosh-u tarozi to'g'riligi tekshirib turilgan va qalloblar ayovsiz jazolangan. Mamlakatda ko'rilgan bunday chora tadbirlar avvalo adolatni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan va albatta aholini qashshoqlik va mamlakatni iqtisodiy tanazzulga tushib qolishini oldini olgan. Negaki Amir Temur : "Raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasini kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohlarning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohlarning tarqoqligi esa, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi." degan fikrni olg'a suradi va buni amalda ham namoyon qila oladi.

Mamlakatda dehqonchilikka katta e'tibor berilgan bo'lib, yerga egalik qilishning quyidagi turlari mavjud bo'lgan:

1. *Suyurg'ol yerlar.* Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o'tgan. Suyurg'ol egasi soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig'i – xiroj olganlar. Xiroj solig'i olingan hosilning 1/3 qismi ekanligi esa qaysidir ma'noda adolatdan bo'lgan degan fikrni uyg'otadi. Chunki hosilning 1/3 qismini yer egasi olsa, 1/3 qismini dehqon oilasi uchun olib qolgan va o'z o'rnida 1/3 qismi dehqon tomonidan savdoga chiqarilgan.

2. *Tarxon yerlar.* Bu yerlar xususiy mulk bo'lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan.

3. *Ushr yerlar.* Sayid va xo'jalarga mansub yerlar. Bu yerlardan olingan hosilning o'ndan biri davlatga berilgan.

4. *Vaqf yerlari.* Masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarni o'z ichiga oluvchi yerlar. Vaqfda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in'om etiladi.

5. *Askarlarga, ularning rahbarlariga beriladigan yerlar .*

Agarda kimda kim sahroni obod qilsa yo yer osti suvlarini chiqarsa , yoxud xarob bo'lib yotgan yerlarni obod qilib dehqonchilik uchun foydalansa, birinchi yil undan soliq olinmagan, ikkinchi yil roziligi bilan bergan miqdorda soliq topshirgan , faqatgina 3-yildan boshlab undan xiroj solig'i olingan. Ushbu vaziyatga bunday yondashuv eng mukammal qaror bo'lgan, sababi qariyb ikki yil soliq to'lamay ishlashni xohlagan dehqonlar qarovsiz va vayrona ahvolga kelib qolgan yerlarni, shu jumladan cho'llarni ekinga yaroqli holatga olib kelgan, va bu orqali 3-yildan boshlab xiroj solig'i olingan, bu esa ishlatishga yaroqsiz ko'pgina yerlardan bir necha yil ichida foydali soliq olish imkonini bergan va bu yerlarda ishlagan dehqonlar ham davlat qishloq xo'jaligini, ham o'z iqtisodiy holatini rivojlantirishga erishgan.

Amir Temur Angliya va Fransiya qirollari bilan tashqi savdo aloqalarini ham yo'lga qo'yishni joiz deb biladi. Shu maqsad yo'lida Sohibqiron savdogarlarga juda ulkan sharoitlarni yaratib beradi. To Mag'ribdan Mashriqqacha savdo-sotiq ishlari uchun mukammal darajada imkoniyat yaratilgan. Masalan bir kunlik karvon yo'lida karvonsaroylar barpo etilgan bo'lib, karvonsaroylarda yem-xashak, otlar, oziq-ovqat, suv bo'lgan va muntazam ravishda turli xil inshootlar, masalan, sardobalar qurilgan. Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, chet eldan keltirilgan tovar hamda

mahsulotlar ustiga 10% va undan yuqoriroq narx qo'yib sotish mumkin bo'lgan. Bu hozirgi zamon tili bilan aytganda, birinchidan ichki bozorda chet el tovarlariga nisbatan talabni oshirsa, ikkinchidan esa aholining ehtiyojlarini to'liq darajada qondirishga yordam beradi.

Umuman olganda, Amir Temurning davlatni qanday boshqarish va uning iqtisodiyotini samarali hamda tez rivojlantirish to'g'risidagi fikrlari "Temur tuzuklari" asarida aniq va ravshan tarzda keltirilgan. Bu kitobda yozilishicha davlat iqtisodiy jihatdan 12 ta qismga bo'lingan:

- 1.Din ahli
- 2.Aqlli va donishmand shaxslar
- 3.Xudojo'y kishilar
- 4.Sipohlar va raiyat ahli
- 5.Turli xil harbiylar
- 6.Aqlli va tajribali , ya'ni ishonchli kishilar
- 7.Vazirlar va kotiblar
- 8.Hakimlar va quruvchilar
- 9.Hadis olimlari
- 10.Hunar ahli
- 11.San'atchilar
- 12.Savdogar va sayyohlar

Bu davrda hisob kitob ishlari shu qadar aniq va adolatli olib borilganki, hatto qo'shin ahli maoshi qanaqa bo'lishi kerakligi aniq qoidalar bo'yicha yozib qo'yilgan. Umuman Devonbegi va vazirlar Amir Temurga maosh hisob kitobini muntazam ravishda berib borishgan va uning buyrug'i bilangina sipohlar va boshqa davlat ishchilariga maoshlari yoki maosh o'rniga yer-suv mulklari qisqa qilib aytganda tanholar tayinlangan va o'z o'rni va vaqtida yetkazib berilgan.

Har bir ish adolatli va haqqoniy ravishda bo'lishi ayniqsa, soliq yig'ish ishlarida oqilona ishlash kerakligi muntazam uqtirib borilgan va "Temur tuzuklari" da bu masalaga ham yechim berilgan. Kitobda aytilishicha:

"Soliq yig'ish vaqtida ikki vazir tayinlanishi kerak. Biri to'plangan molni hisob kitob qilib, raiyat ahvolini o'rgansin, aholi soliq olish vaqtida davlat tomonidan hech qanday aziyat ko'rmasin.Qishloq va viloyatlarda olingan soliq aniq, tushunarli va tartibli holatda kirim daftariga yozib borilsin. Ikkinchi vazir esa, chiqim daftarga sipohlarga berilayotgan maoshni aniq tartibda yozib borsin."

Albatta soliqni bu tartibda yig'ish , yig'ilayotgan soliq hisobini aniq olish va uni sipohlarga aniq taqsimlab berish imkonini beradi.

Amir Temur olim va ulamolarga nisbatan ulkan hurmat ko'rsatib, o'zi yurish qilgan davlatlar aholisi orasida olimlar bo'lsa ularni hurmatini yuksak baholagan va ziyon yetkazmagan. Ulardan davlatni qanday tartibda boshqarish haqida muntazam tarzda maslahat olib turgan. "Temur tuzuklari" kitobi Amir Temurning 1342-yildan 1405-yilgacha bo'lgan davrdagi hayotini aks ettiradi va 2-qismdan iborat.

Iqtisodiyotga oid kerakli ma'lumotlar asosan 2-qismda yoritilgan bo'lib, u yerda Sohibqiron o'z shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirgan.

Amir Temur mamlakatda kambag'al va gadolar bo'lmasligi kerak degan fikrga kelgan va bu fikrga doim amal qilgan. Gadolarning barchasi ma'lum muddat oralig'ida bir joyga to'plangan va kerakli oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlangan holda ma'lum ish, kasb yoki hunarga jalb qilingan va shu tufayli aksariyatlar gadoylikni tashlab o'z kasblarini topganlar, topa olmaganlar esa qul sifatida boshqa davlatga sotilgan yoki mamlakatdan quvib chiqarilgan. Bu esa qaysidir ma'noda mamlakatni ishsizlik darajasini kamaytirish va qaysidir ma'noda mamlakatni tozalashni anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur ma'lum muddat ichida misli ko'rilmagan darajada ulkan davlat yarata oldi , uch , besh va hatto yetti yillik urushlarga qaramay mamlakatda tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qola oldi. Ham tashqi ham ichki savdoni rivojlantirgan holda Movorounnahrni mukammal tarzda savdo-sotiq markaziga aylantira oldi. Bu esa Sohibqironning aqliy salohiyati va ilmiy bilimlari kuchli ekanligidan va davlatining eng yuksak iqtisodiy cho'qqisiga o'sha davrdagina erisha olganining haqiqiy isbotidir.

1. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI (o'quv qo'llanma) Toshkent – 2005
2. "Temur tuzuklari" Toshkent-1991
3. Muhammad Ali AMIR TEMUR SOLNOMASI Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Miliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent— 2008